

**IDIOMS: SEMANTIC-PRAGMATIC ANALYSIS OF ENGLISH IDIOMS  
CONTAINING ANIMAL NAMES****Jurakhanov Azamat Azamkhon ugli**

Student of the Uzbek State University of World Languages

**Abstract**

This article analyzes idioms involving animal names in English from both semantic and pragmatic perspectives. Idioms are one of the most figurative and polysemous units in language, reflecting the historical experience, cultural views, and cognitive thinking of the people who use a particular language. In the article, idioms consisting of the components "dog," "cat," and "horse" are selected, and the figurative meaning, metaphorical basis, and functional role of these units in the speech process are highlighted. The article also explains the historical and cultural factors that influenced the emergence of the given idioms, folklore, ancient beliefs, and social experiences. The semantic structure of idioms, their multi-layered meaning, emotional and stylistic functions, and pragmatic functions are also analyzed. The results of the article show that phrases formed with the help of animal images in the English language occupy an important place in the cognitive system of the language, and also that they are a product of national-cultural thinking and can acquire different meanings depending on the context.

**Keywords**

Idioms, phraseological units, semantics, pragmatics, metaphor, cultural connotation, animal names, English language, cognitive linguistics, historical-etymological sources, linguoculturology

**ИДИОМЫ: СЕМАНТИКО-ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ  
ИДИОМ, СОДЕРЖАЩИХ НАЗВАНИЯ ЖИВОТНЫХ****Аннотация**

В данной статье анализируются идиомы с названиями животных в английском языке с семантической и прагматической точек зрения. Фразеологизмы - одна из самых образных и многозначных единиц языка, отражающая исторический опыт, культурные взгляды и когнитивное мышление людей, использующих тот или иной язык. В статье выделяются идиомы, состоящие из компонентов "собака," "кошка" и "лошадь," и подчеркивается образное значение, метафорическая основа и функциональная роль этих единиц в речевом процессе. В статье также объясняются исторические и культурные факторы, повлиявшие на возникновение этих идиом, фольклор, древние верования и социальный опыт. Также анализируется семантическая структура идиом, их многослойное значение, эмоциональные и стилистические функции, а также прагматические функции. Результаты статьи показывают, что словосочетания, образованные с помощью изображений животных в английском языке, занимают важное место в когнитивной системе языка, а также являются продуктом национально-культурного мышления и могут приобретать различные значения в зависимости от контекста.

**Ключевые слова**

идиомы, фразеологические единицы, семантика, прагматика, метафора, культурная коннотация, названия животных, английский язык, когнитивная лингвистика, историко-этимологические источники, лингвокультуралогия

## **IDIOMALAR: TARKIBIDA HAYVON NOMLARI KELTIRILGAN INGLIZ IDIOMALARINING SEMANTIK-PRAGMATIK TAHLILI**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada ingliz tilidagi hayvon nomlari ishtirokidagi idiomalar semantik va pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Idiomalar tildagi eng obrazli va ko'p ma'noli birliklardan biri hisoblanib, ular ma'lum tildan foydalanuvchi xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qarashlari va kognitiv tafakkurini aks ettiradi. Maqolada, ayniqsa "dog", "cat" va "horse" komponentlaridan iborat idiomalar tanlangan bo'lib, ushbu birliklarning ko'chma ma'nosi, metaforik asoslari va nutq jarayonidagi funksional o'rni yoritiladi. Maqolada keltirilgan idiomalarning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy va madaniy omillar, xalq og'zaki ijodi, qadimiy e'tiqodlar va ijtimoiy tajribalar ham izohlangan. Shuningdek, idiomalarning semantik tuzilishi, ma'no ko'p qatlamliligi, emotsional va stilistik funksiyalari, pragmatik vazifalarini ham analiz qilinadi. Maqola natijalari ingliz tilidagi hayvon obrazlari yordamida shakllangan iboralar tilning kognitiv tizimida muhim o'rin egallashini, shuningdek, ular milliy-madaniy tafakkur mahsuli bo'lib, kontekstga bog'liq holda turlicha ma'no kasb etishlari mumkinligini ko'rsatadi.

### **Kalit so'zlar**

Idiomalar, frazeologik birliklar, semantika, pragmatika, metafora, madaniy konnotatsiya, hayvon nomlari, ingliz tili, kognitiv tilshunoslik, tarixiy-etimologik manbalar, lingvokulturologiya

Til insonning fikrlarini erkin ifodalashga xizmat qiladigan eng murakkab va ko'p qatlamli ijtimoiy hodisadir. Har bir tilning tarkibi nafaqat lug'aviy birliklar, grammatik strukturalar va tovush tizimi orqali, balki xalqning madaniy tarixi, hayotiy tajribasi va mental olamini ifodalovchi ko'plab metaforik birliklar orqali ham boyib boradi. Shunday birliklarning eng faol, eng obrazli va eng qadimiy shakllaridan biri – idiomalardir. Idiomalar tildagi turg'un birikmalar bo'lib, ularning tarkibidagi so'zlarning oddiy lug'aviy ma'nosi asosida talqin qilib bo'lmaydigan, mustaqil va yaxlit ko'chma ma'noni anglatadi. Shunday qilib, idioma – bu tilning ruhiy va madaniy tajribasini qisqa, obrazli, ammo kuchli ifodalaydigan o'ziga xos frazeologik birlikdir. Bunday frazeologik birliklarning o'ziga xos jihati shundaki, ular oddiy so'z birikmalariga o'xshamaydi: tarkib tiniq, doimiy va bizga tanish so'zlar qo'llangan bo'lsa ham, ma'nosi ko'pincha murakkab, metaforik va ko'p qatlamlidir. Masalan, ingliz tilidagi "to kick the bucket", "to let the cat out of the bag", "hold your horses" kabi iboralar o'z tarkibidan kelib chiqqan oddiy ma'noni emas, balki xalq boshidan o'tkazgan kunlarga asoslanib, asrlar davomida shakllangan ramziy mazmunni ifodalanadi. Bu shuni ko'rsatadiki, idioma tilning faqat grammatik hodisasi, balki til egalari bo'lgan xalqning madaniy tajribasi, tarixiy voqea-hodisalari, stereotiplari, e'tiqod va dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liqdir. Idiomalar mazmunini to'liq tushunish uchun ularni ikki asosiy nuqtai nazardan ko'rib chiqish lozim: **semantik** va **pragmatik** yondashuvlar. Semantika idioma anglatgan ko'chma ma'noni, tarkibidagi metaforalarning shakllanish jarayonini o'rganadi. Pragmatika esa idioma qanday nutqiy vaziyatda qo'llanishini, qanday maqsadga xizmat qilishini, suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatga qanday ta'sir etishini o'rganuvchi til tizimidir. Bu ikki yondashuv tilshunoslikning turli bo'limlariga tegishli bo'lsa, ham idiomalarning tabiati ularni bir butun

holda o'rganishni talab qiladi. Idiomalarda metafora asosiy semantik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Metafora orqali insonlar abstrakt tushunchalarni konkret predmetlar bilan taqqoslaydi, natijada sodda tasvirlar murakkab mazmun anglatadi. Ayniqsa hayvon nomlari ishtirokidagi idiomalar metaforaning eng boy va eng qadimiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, ular xalqning hayvonlarga bo'lgan qadimiy tasavvurlarini, e'tiqod va mental stereotiplarini aks ettiradi. Ingliz tilida kuchuk (dog), mushuk (cat) va ot (horse) ishtirokidagi idiomalarning ko'p bo'lishi ham bejiz emas: bu hayvonlar inson hayoti va madaniyatining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Shuning uchun ham hayvon nomlari asosida shakllangan idiomalar semantik jihatdan rang-barang, pragmatik jihatdan esa tez-tez qo'llanadi. Masalan, kuchuk ishtirokidagi "a dog's life" iborasi ingliz madaniyatida kuchuklarning past tabaqa vakillari bilan bogliq hollarda qo'llanilishidan kelib chiqqan. Mushuk ishtirokidagi "curiosity killed the cat" esa Yevropa xalqlarining ba'zida sirli, ba'zan esa xatarli xarakterda tasavvur kabi tarixiy qarashlaridan oziqlanadi. Otlarga oid "hold your horses" ga o'xshash idiomalar esa insoniyat tarixidagi transport, harbiy yurishlar va dehqonchilik faoliyatida otning beqiyos o'rni bilan bog'liq. Demak, har bir idioma o'zida ko'p yillik tajriba, mental obrazlar, folklor va madaniy merosni mujassamlashtirgan murakkab birlik hisoblanadi. Bunday frazeologik birliklarning pragmatik jihati bir muncha murakkabroq. Idioma so'zlovchining hissiyotlarini yanada kuchaytirib, berilayotgan informatsiyaga badiiy bo'yoq qo'shadi, nutqiy vaziyatga mos atmosfera yaratadi, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy masofaning qay darajada mukammal his etilishini belgilaydi, ba'zida kinoya, istehzo yoki yumor vositasiga aylanadi. Masalan, "let the cat out of the bag" iborasi rasmiy kontekstda ishlatilmaydi, u norasmiy nutqda yumshoq tanbeh, kulgili vaziyat yoki hayron qolish kabi vaziyatlarda ma'noni yanada tabiiy va kuchliroq tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu bois idioma – shunchaki frazeologik birlik emas - u nutq jarayonini mazmunan, emotsional jihatdan boyituvchi, so'zlovchi nutqini tabiiylashtiruvchi kuchli vosita sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Hayvon nomlari bilan ifodalangan idiomalar tahlili, ayniqsa tilda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular turli xalqlarning kognitiv tasavvur tizimlarini taqqoslashda, metaforalarning shakllanish omillarini chuqur tahlil qilib o'rganishda, til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik jihatlarni yanada mukammalroq tadqiq etishda bebaho manba bo'lib xizmat qiladi. Bu turdagi idiomalar ko'pincha nafaqat metaforik, balki tarixiy ildizlarga ham ega bo'ladi; ular qadimiy e'tiqodlar, xalq og'zaki ijodi, folklor, diniy qarashlar yoki kundalik hayot bilan bog'liq voqealıklar sababli vujudga kelgan. Ushbu maqolada – ingliz tilidagi hayvon nomlari ishtirokidagi idiomalarni, xususan kuchuk, mushuk va ot obrazlari bilan bog'liq frazeologik birliklarni semantik va pragmatik nuqtai nazardan chuqur tahlil qilinib, ularning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan tarixiy omillarni o'rganiladi, shu bilan birga, har bir idioma anglatgan ko'chma ma'noni alohida izohlab beriladi. Semantik jihatdan idioma – murakkab, ko'p qatlamli ma'no tizimiga ega birikma. Idiomalarning ma'nolari ko'pincha uch xil tarmoqlarga bo'linadi:

1. **Denotativ bosqich** – idiomada qo'llangan so'zlarning bevosita lug'aviy ma'nosi;
2. **Konnotativ bosqich** – ma'nodagi qo'shimcha bo'yoqlar: ijobiy yoki salbiy hislar;
3. **Metaforik bosqich** – idioma anglatadigan ko'chma ma'no.

Masalan, "a dog's life" iborasida denotativ ma'no – kuchukning hayoti. Konnotatsiya – og'ir, qiyinchilikka to'la hayot. Metaforik ma'no – qiynoq, azob bilan o'tadigan hayot tarzi ma'nosini ifodalaydi.

1. **"A dog's life" – "Og'ir hayot, azobli kunlar"**

Semantik nuqtai nazardan “Dog” – qadimiy Yevropada ko‘pincha past tabaqa hayvoni sifatida qaralgan, demak kuchikning hayoti - albatta qiyinchilikka to‘la hayot tarzini ifodalash maqsadida qo‘llangan. Shunday qilib, idiomadagi ma‘no: qiyinchilik bilan to‘la hayot. Pragmatik jihatdan esa ushbu idiomada ko‘pincha nutq jarayonida vaziyatga salbiy baho berish uchun ishlatiladi. VA shu orqali hissiyot kuchli ifoda etiladi.

## **2. “Every dog has its day” – “Har kimning ham o‘z nasibasi bor”**

Semantika nuqtai nazaridan yondashilsa ushbu frazeologik birlik har qanday odamning hayotida ham bir kun omad kulib boqadi degan ma‘noni ilgari surmoqda. Pragmatikada esa bu kabi idiomalar tasalli berish yoki motivatsiya qilish uchun ishlatiladi.

## **3. “The cat is out of the bag” – “Sir oshkor bo‘ldi”**

Semantik jihatdan bu yerda “Cat” – yashirin narsaning ramzi sifatida qo‘llangan. “Out of the bag” esa – oshkorlik. Pragmatikada esa bu idiomada kulgu, hayrat ohangini namoyon etishda ishlatiladi.

## **4. “Curiosity killed the cat” – “Haddan oshgan qiziqish baloga yo‘l ochadi”**

Semantikada ko‘pincha ortiqcha qiziqish – xavf ramzi. Pragmatikada esa ogohlantirish. Odatda yumshoq tanbeh sifatida ishlatiladigan ushbu frazeologik birlik ko‘pincha insonlarga ortiqcha qiziqish, hadda ziyod qandaydir holatning yoki jarayonning “fanati” bo‘lish, haddan ziyod qiziqish bildirish yaxshilikka olib kelmasligini uqtiradi.

## **5. “Hold your horses” – “Shoshma, o‘zingni bos”**

Semantikada “Horses” – tezlik, harakat timsoli hisoblanib, ma‘no jihatdan bu frazeologik birlik shoshilinch qaror qabul qilmaslik g‘oyasini ilgrai suradi. Pragmatik nuqtai nazardan norasmiy doiralarda tez-tez qo‘llaniladigan ibora hisoblanadi.

## **6. “Work like a horse” – “Otdak mehnat qilmoq”**

Semantik jihatdan “otdek mehnat qilish” kuch, chidam, mehnatsevarlik kabi ma‘nolarni anglatadi. Pragmatik jihatdan esa maqtov yoki jarayonni kuchli bo‘yoqlar bilan ifodalash uchun ishlatiladi. O‘zbek tilida ushbu idiomaning biroz salbiy bo‘yoqlarga burkangan “Itdek ishlamoq” ko‘rinishini tez-tez guvohi bo‘lish mumkin.

## **7. “Monkey see, monkey do” — “Ko‘r-ko‘rona taqlid qilish”**

Semantika nuqtai nazaridan bu idiomada insonning mustaqil fikrlay olmaydigan, muhitga ergashuvchan xatti-harakatini ifodalash uchun qo‘llanilsa, Pragmatik tahlilda kuzatish mumkin bo‘lgan holat quyidagicha: Ushbu idiomada tanbeh, muloyim kinoya uchun qo‘llanilib, Kattalar va bolalar nutqida birdek uchratish mumkin va ko‘pincha tarbiyaviy maqsadda qo‘llanadi. O‘zbek tilida esa ushbu idiomaning alternativisi sifatida “Birov tomdan tashlasa, sen ham tashla” ko‘rinishini uchratib turamiz, albatta bu frazeologik birlik ham birmuncha salbiy bo‘yoqlarga ega.

## **8. “A barrel of monkeys” — “Juda kulgili vaziyat, qiy-chuv”**

Semantikada haddan tashqari kulgili, qiziqarli vaziyatlarni ifodalash uchun ishlatilsa, pragmatikada ushbu idiomalar vaziyatning jiddiy emasligini ta'kidlash uchun norasmiy doiralarda ishlatiladi. To'g'ridan-to'g'ri tarjimada esa bir bochka maymun, maymunlar bochkasi ma'nosini anglatadi, ammo bu birlik faqatgina idiomalar frazeologik birlik sifatidagini tahlil qilinishi mumkin.

#### 9. “Make a monkey out of someone” — “Birovni ahmoq qilish, sharmanda qilish”

Semantikada bu idiomalar, insonlarni (yoki insonni) xatti-harakati, o'zini tutishiga qarab uning ustidan kulish maqsadida ishlatiladi: kimnidir maymunga o'xshatish, masxara qilish, yerga urish. Pragmatik nuqtai nazardan ushbu idiomalar keski va norasmiy nutqqa mos shakldir.

#### 10. “I’ll be a monkey’s uncle!” — “Hayrat, ishonchsizlik ifodasi”

Semantikada bu idiomani “ishonish qiyin”, “juda g'ayrioddiy holat” kabi ma'nolarni anglatgani sabab qo'llaniladi, yoki ishonish qiyinligini ta'kidlaydi. Pragmatikada esa hayrat va ishonchsizlikni anglatib, ko'proq amerika ingliz tiliga xosdir. Hamda masxarali, yumoristik ohang kasb etadi.

Ushbu maqola ingliz tilidagi hayvon nomlari ishtirok etgan idiomalarning semantik va pragmatik xususiyatlarini keng qamrovli tahlil qildi desak adashmagan bo'lamiz. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hayvon obrazlari orqali shakllangan idiomalar nafaqat leksik birliklar sifatida, balki milliy-madaniy tafakkur va kognitiv modelarning manifestatsiyasi sifatida til tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Semantik nuqtai nazardan idiomalarning bunday tuzilishi — denotativ, konnotativ va metaforik bosqichlardan iborat murakkab qatlamli tizim ekani ma'lum. Har bir bosqich idiomadagi umumiy ma'noning paydo bo'lishida o'zaro faol integratsiyaga ega. Masalan, “a dog's life” idiomasi kuchukning denotativ tasviri (hayvon) konnotativ tarixiy stereotiplar (nochorlik, past maqom) orqali metaforik umumlashmaga (qiyin, azobli hayot) aylanadi. Bu jarayon milliy madaniyatning til ichidagi ma'no tizimi yaqqol namoyon etadi — idiomalar xalqning tarixiy tajribasi va e'tiqodlarini qisqa, yuqori effektdagi frazeologik birlikka aylantiradi. Idiomalarning pragmatik tahlili ularning nutq jarayonida qanday holatlarda qo'llash mumkin yoki mumkin bo'lmagan holat va jarayonlarni tahlil qiladi. Analiz qilingan idiomalar (masalan, “let the cat out of the bag”, “hold your horses”, “monkey see, monkey do”, “cunning as a fox”) turli pragmatik vazifalarni bajaradi: ogohlantirish, tanbeh, kinoya, hazil, motivatsiya, e'tiborni qaratish kabilar shular jumlasidandir. Shu bilan birga idiomalar so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy masofani belgilashda ham qo'llaniladi — rasmiy nutqdan ko'ra, norasmiy, oilaviy yoki suhbatdoshlar orasidagi yaqinlikda ko'proq uchraydi. Bu ularni pragmatik kontekstda sezilarli darajada moslashuvchan qiladi. Hayvon nomlari ishtirokidagi metaforalar kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan konseptual metaforalar toifasiga kiradi: ular insonlar mavjudotlarni hayotiy holat va xulq-atvorni model qilish uchun vosita sifatida ishlatadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, hayvon tasavvurlari madaniyatdan madaniyatga o'xshashlik va farqlar bilan tarqaladi — masalan, “curiosity killed the cat” g'arb mintaqalarida kuchli semantik og'irlikka ega bo'lsa, boshqa madaniyatlarda mushuk obrazining konnotatsiyasi farq qilishi mumkin. Bu esa tarjima va madaniyatlararo muloqotda ma'lum muammolarga sabab bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari hayvonlarga oid idiomalar tilning universal hamda o'ziga xos jihatlari (Universals and univals) bir vaqtda aks ettiradi. Masalan, ingliz tilidagi maymun, tulki, ot, mushuk yoki kuchuk obrazlarini ko'plab boshqa tillarda ham tez-tez uchratib turish odatiy holat. Lekin ularning har biri turli til doiralari, mamlakatlar tarixi, ana'ana va madaniyatiga ko'ra turli ma'nolarda qo'llanilishi ham tabiiy hol. O'zbek tilidagi “tulkidek ayyor”, “eshshakday

mehnatkash”, “mushukdek muloyim” kabi birliklar ingliz tilidagi mos idiomalar bilan semantik jihatdan yaqin bo’lsa ham ularning pragmatik nuqtai nazardan tahlili, o’rganilishi, nutqdagi ohangi, qolaversa ishlatilish doirasi xalqalarga oid o’ziga xos tafakkur va nutq madaniyati bilan belgilanadi. Bu esa tilshunoslikda muhim bo’lgan lingvokulturologik ekvivalentlik va konseptual metafora masalalarining o’rganilishini yanada dolzarb ekanligini anglatadi. Hayvonlarga oid idiomalar zamonaviy ingliz tilida ham faol qo’llanilayotgani - ahamiyatli. Ular faqat badiiy adabiyot yoki folklorga oid kontekstlarda emas, balki ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari, kino va seriallardagi dialoglar, hatto siyosiy nutqlarda ham keng foydalaniladi. Bu esa idiomalarning tirik, dinamik, zamonaviy lingvistik hodisa ekanini tasdiqlaydi. Masalan, “make a monkey out of someone” yoki “cunning as a fox” iboralari bugungi kunda ham BBC, New York Times, Guardian kabi ommaviy axborot vositalarida muntazam uchrab turadi.

### References:

1. Oxford English Dictionary (OED). Oxford University Press.
2. Mieder, W. (2004). A Dictionary of American Proverbs.
3. Spears, R. (2005). McGraw-Hill’s Dictionary of American Idioms and Phrasal Verbs.
4. Ayto, J. (2010). Oxford Dictionary of English Idioms.
5. Morris, W. (1975). The Origins of English Words: A Discursive Dictionary.
6. Akhmanova, O. S. (1972). Dictionary of linguistic terms. Moscow: Soviet Encyclopedia.
7. Ammer, C. (2013). The American heritage dictionary of idioms. Houghton Mifflin Harcourt.
8. Barcelona, A. (Ed.). (2000). Metaphor and metonymy at the crossroads: A cognitive perspective. Berlin: Mouton de Gruyter.
9. Biber, D., Conrad, S., & Leech, G. (2002). Longman student grammar of spoken and written English. Longman.
10. Cruse, D. A. (2011). Meaning in language: An introduction to semantics and pragmatics (3rd ed.). Oxford University Press.